O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.Asatulloyeva
Professional so‘zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5
R.A.Ortiqov
Ingliz mifologiyasini talabalarga o‘qitishning zamonaviy asoslari 10
Q.V.Yo‘lchiyev
O‘zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlilik 14
A.G.Sabirdinov
Mirtemir she’rlarining milliy jozibasi 19
D.G‘.Gafurova
Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev
Muallif idiostilining lingvopoetik xususiyatlari 27
Н.Х.Алиева
Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32
Н.Х.Алиева
Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35
Н.Х.Алиева
Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41
L.A.Abdullayeva
Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46
M.R.Allambergenova
Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51
U.M.Askarova
Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56
A.A.Qosimov
Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61
M.E.Qobilov
Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69
G.X.Ismoilova
O‘zbek va ingliz tillarida “farsihta/angel” va “shayton/devil” leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73
U.M.Askarova
Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni 78
J.A.Akhrorova
Metonymy and its relation with discourse 81
Sh.U.Nosirova
Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84
Sh.U.Nosirova
Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o‘rni 89
U.M.Askarova, D.X.Xolbekova
Matn tuzilishida tinish belgilarining o‘rni va vazifalari 93
A.R.Kosimov
So‘zlarning shaxsga hissiy ta’siri xususiyatlari 97
Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова
Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова
Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a76

UO'K: 15(5)+23.19

PROFESSIONAL SO'ZLAR ISHTIROK ETGAN MAQOL VA FRAZEOLOGIZMLARNING PRAGMATIK TAHLILIGA DOIR

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ И ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ, СОДЕРЖАЩИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ ЛЕКСИКУ

A PRAGMATIC STUDY OF PROVERBS AND IDIOMS CONTAINING PROFESSIONAL TERMS

Asatulloyeva Muhayyo
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning badiiy matndagi o'rni va ahamiyati pragmatik jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация

В статье представлен прагматический анализ роли и значения пословиц и фразеологизмов, содержащих профессиональную лексику, в художественных текстах..

Abstract

This article provides a pragmatic analysis of the role and significance of proverbs and idioms containing professional vocabulary in literary texts.

Kalit so'zlar: *termin, professionalizmlar, maqol, frazema, pragmatika, umumiy yashirin ma'no, xususiy yashirin ma'no, kommunikatsiya, nutqiy vaziyat.*

Ключевые слова*: термин, профессионализм, пословица,фраза, прагматика, общее неявное значение, конкретное неявное значение, коммуникатсия, речевая ситуатсия.*

Key words: *terminology, professionalisms, proverb, phraseological unit, pragmatics, general implicit meaning, specific implicit meaning, communication, speech situation.*

KIRISH

Axborot bayoni oshkora va yashirin shaklda bo'lib, bu kommunikatsiya jarayonidagi nutqiy vaziyat va so'zlashuvchilarning ichki maqsadi bilan uzviy bog'lanadi. Ifoda semantik tuzilishi murakkab bo'lib, u o'zining tarkibiga so'zlovchi shaxsi va nutqiy vaziyat bilan aloqador bir necha mazmun ko'rinishlarini qamrab oladi. Kommunikatsiya jarayonida so'zlovchi va tinglovchi xususiy munosabatlarining bayoni oshkora va yashirin mazmundan iborat, ular ifodalanish darajasiga ko'ra biri ikkinchisidan farqlanadi. Axborotning oshkora shakli ifodanining har qanday ko'rinishida mavjud, u ko'pincha nutq predmeti xususidagi oddiy propozitsiyani tashkil etadi. Axborotning yashirin shakli esa ana shu oshkora bayon tarkibiga joylashtiriladi. Bu yashirin mazmun deb yuritiladi. Ba'zi ifodalarga shunday ko'z tushishi bilan undagi axborot mazmunini ilg'ab olish qiyin bo'lmaydi. Boshqa bir ifodalarda esa garchi ularning shakliy tuzilishi sodda bo'lishiga qaramay, so'zlovchi nazarda tutgan axborot mazmunini anglash qiyin.

Bunday ifodalar mazmuniy tuzilishida axborotning bir necha ko'rinishlari ishtirok etgani uchun ularni o'zaro birini ikkinchisidan chegaralash mezonlarini ko'rsatish so'zlovchi nazarda tutgan axborot shaklini to'g'ri anglash imkonini yaratadi.

Umuman,yashirin ma'no ifodalash shakllari turlicha ko'rinishlardan iborat:

1. Umumiy yashirin ma'no.
2. Xususiy yashirin ma'no.

Umumiy yashirin ma'nolar so'zlovchi, tinglovchi va barcha nutq ishtirokchilari anglab olishi mumkin bo'lgan yashirin ma'nolardir. Ularga ibora, matal, replika, maqol, topishmoq,frazema va shu kabilar kiradi. Bunday matnlar orqali ifodalangan tagma'nolar har qanday nutq ishtirokchilari uchun ma'lum bo'lishlik belgisi bilan xarakterlanadi. Umumiy yashirin ma'no ko'rinishlari

paremiologik janrga xos matnlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Bunday matnlar tor verbal sintaktik shakl sifatida so'zlovchi nazarda tutgan yashirin ma'noni ifodalash uchun keng mazmuniy imkoniyatga egaligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbek tilshunosligida kasb-hunar leksikasini o'rganishga doir bir qator ishlar [2] mavjud bo'lib, ularda ko'rsatilgan lug'aviy qatlamning ayrim turlari, asosan, an'anaviy-tavsifiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan [3]. Mustaqillik sharofati bilan tilimiz qurilishi, grammatikasiga yangicha qarashlar kirib keldi. Jumladan, til sathlarini sistem-struktur jihatdan o'rganish, shu nuqtayi nazardan tadqiq qilish g'oyalari ilgari surildi. Buning natijasida leksik sathning terminologik qatlamida ham talaygina ishlar qilindi, tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, A.Nurmonov, I.Qo'chqortoyev, E.Begmatov, R.Safarova, M.Abdiyev kabi olimlarning izlanishlari yaqqol misol bo'la oladi.

Zamonaviy tilshunosligimizda oxirgi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda lisoniy hodisalar markazida inson turishi va har bir hodisa unga bog'liq holda talqin qilinishi barchamizga ma'lum. Hozirda lisoniy shaxsni lisoniy ong va nutqiy muomala, shuningdek, lingvistik konseptologiya va diskurs nazariyasi nuqtayi nazaridan tavsiflash keng o'rganilmoqda.

Antroposentrik atamasi matn, badiiy asar yoki folklor namunasida inson omilining ustuvorligi demakdir. Bunda M.A.Avganova, E.S.Aznaurova, N.F.Alefirenko, Y.D.Apersyan, N.D.Baranova A.N.Arutyunova, M.M.Baxtin, S.G.Vorkachev, V.Z.Demyankov, A.V.Doroshenko, G.A.Zolotova, T.V.Markelova kabi tilshunoslar qatori A.Abduazizov,A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, B.Yo'ldoshev, M.Hakimov, S.Boymirzayeva, D.Xudoyberganova, S.G'oyibov, J.Yaqubov kabi o'zbek olimlarining ham xizmatlari katta bo'ldi [4].

Ma'lumki, bevosita muloqot muhiti, asosan, matnda o'zining bor imkoniyatlari va xususiyatlarini namoyon etadi. Shunga ko'ra lingvistik birliklarning pragmatik xususiyatlarini o'rganish matn lingvistikasini chuqur tadqiq etishni talab etadi. Zero, so'zlovchining axborot uzatishdan maqsadi, tinglovchining axborotni qanday qabul qilganligini matnda yanada aniqroq bilishimiz mumkin. Bugungi kunda matnni tadqiq etish pragmalingvistika yo'nalishiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bilan yanada avj oldi. Qator tadqiqotlar matn qurilishi, unda o'z imkoniyatlarini topgan kategoriyalar, matnning kognitiv xususiyatlariga bag'ishlandi. Jumladan, S.Boymirzayevaning "Matn modalligi", "Matn mazmunida temporallik semantikasi" nomli monografiyasi, Sh.Turniyozovaning "Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi o'zbek tilida matn tilshunosligi oldidagi qator muammolarning yechilishiga turtki bo'ldi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Frazeologizmlarning aksariyati so'zlashuv va badiiy uslubga xosdir [1].

Lekin frazemalarga nisbatan professionalizm haqida gapirish o'zini oqlamaydi. Chunki frazemaning shakllanishiyoq uning tor kasb-kor doirasidan chiqishini, umumlashuvini taqazo qiladi. Bunday umumlashish yo ma'lum dialekt doirasida, yoki umumtil miqyosida paydo bo'ladi [2].

Frazemalarni shakllanish doirasi jihatdan o'rganish alohida ahamiyatga ega. Turli kasb-korga bog'liqligi jihatdan frazemalarni quyidgicha guruhlash mumkin. Ushbu bo'linishni U.Hamdam romanlaridan misollar keltirish bilan izohlaymiz.

1) dehqonchilik doirasida: shoxida yursa, bargida yurmoq, yetti qovun pishig'i, arpasini xom o'rmoq;

Manavi dorilarni qanaqa qilib ichishni bilasiz. Nafsingizni tiyib, yog'li narsalardan parhez qiling, yo'qsa, ***anqoning urug'i*** *kor etmaydi sizga.* [U.Hamdam Isyon va itoat romani. 6-b]

Parchada keltirilgan frazema oldin *anqoning tuxumi* shaklida ishlatilgan bo'lib, "topilishi qiyin, kamyob"[3] bo'lgan narsalarga nisbatan qo'llaniladi. Hozirgi variant *anqoning urug'i.*

Ushbu frazemani misol tariqasida olishdan maqsad shuki, yuqorida aytib o'tganimizdek, frazema tarkibidagi *urug'* so'zi dehqonchilikka oid so'z-termin bo'lib, parchada ibora tarkibida kelib, gap ma'nosini kuchaytirishga, tabibning maslahati juda muhimligini ko'rsatishga yordm bergan.

– Nega o'zimdan hol so'ramaysan, Yog'du? ***Arpangni qachon xom o'rgan ekanman!*** *– ayolga surbetlarcha yaqinroq surildi erkak. – Mening sovchilarimni qaytarib, mendek erkakka rad javobini berib nima ro'shnolik ko'rding?!* [U.Hamdam. "Ota" mini-romani]

ADABIYOTSHUNOSLIK

O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida “*arpasini xom o‘rdi*” iborasi “nima yomonlik qildi”[4] degan ma’noda izohlangan bo‘lib, parchada *arpa* dehqonchilikka oid so‘z-termin sifatida olindi va frazema tarkibida esa “senga nima yomonlik qildim” ma’nosining obrazli, kuchaytirilgan tarzida ifodalagan.

*Po‘latning **tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi**. Har safar vrachning ko‘zlariga ilinj-u iltijo bilan qarab gap boshlaydi.* [U.Hamdam. Ota mini-romani]

Badiiy asardan olingan ushbu parchada ibora “*umidi puchga chiqib, bo‘shashmoq*” [5] ma’nosida kelib, obrazning ichiki holatini kitobxonga yanada aniq ochib berishga xizmat qilgan.

2) tikuvchilik, to‘quvchilik doirasida:

*– Nima o‘ylab gapiryapsanmi, o‘zbek? Qayerga kelganingni unutib qo‘yibsan chog‘i… – Akbardan ham bo‘ydor va basavlatroq haydovchi birdan uning **yoqasiga yopishdi.*** [U.Hamdam Isyon va itoat romani. 13-b] Parchda frazema tarkibida kelgan *yoqa so‘zi* tikuvchilik sohasida ham keng qo‘llanilib, kiyimning bir qismini anglatadi. Iborada esa *urushdi* ma’nosida kelgan.

*O‘tirish qayoqda, u yoqdan, bu yoqqa **bo‘zchining mokkisidek** borib kelar, olazarak bo‘lib, kirib ketgan mijozning ichkaridan chiqishini sabrsizlik bilan kutardi.* [U.Hamdam. Ota mini-romani]

Asardan olingan ushbu parchada bo‘zchining mokkisi iborasi “bir joyda turmaydigan, tez harakat qiladigan” degan ma’nolarni anglatadi. *Mokki* so‘z-termini tikuvchilik sohasiga oid bo‘lib, tikuv moshinasining asosiy qismi hisoblanadi.

3) kosiblik, duradgorik bilan bog‘liq;

4) pazandalik:

*Ehtimol, Gulshodani behol qilgan kuch faqat bu emasdir, balki shu choqqacha tortib kelgan turmush yukining ortiq darajada og‘irlashib ketganidir, **sabr kosasining to‘lib-toshganidir**, **pichoqning borib suyakka yetganidir**. Xullas, nima bo‘lganda ham Gulshoda mana, ikki haftadir to‘shakdan bosh ko‘tarmaydi.*[U.Hamdam. “Muvoznat” romani. 200-bet].

Parchdagi iboralar asar qahramonining sabri bitib, oxiri charchab yiqilganinini obrazli tarzda, kuchaytirilgan ma’noda bergan. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida *“sabr kosasining to‘lib-toshganidir, pichoqning borib suyakka yetgan”* iboralari “ *ortiq chidab bo‘lmaydi*” degan ma’noda izohlanadi[6]. Bu ikki ma’nodosh hisoblanib, ma’noni darajalab ifodalagan. Ya’ni sinonimik qatorda *pichoqning borib suyakka yetgan”* iborasi *“sabr kosasining to‘lib-toshgan”* iborasidan ma’no jihatdan bo‘yoqdordir. Darjalanish obrazning ruhiy holatini aniq ifodalab bergan. *Kosa, pichoq* so‘z-terminlari esa oshpazlik sohasida keng qo‘llaniladi.

*U Amir yonayotgan **olovga yog‘ quyilib** tirishidan ko‘proq lazzat oladi. Odil akani g‘azab otiga mindirayotgan jihatlaridan biri ham shu. Alifni kaltak deb yurgan qayoqdagi qalang‘i-qasang‘ilarning qo‘lini bigiz qilib, o‘qimishli Amirni ko‘rsatgancha “zamonamizning jinnisi shu bo‘ladi” deyishlariga hich chiday olasdi.* [U.Hamdam. “Muvoznat; romani. 103-bet]

*– O‘tir,, o‘tirsangchi-chi, nega sapchiysan! – bir qo‘lini ko‘tarib, lekin Yog‘duning yelkasidan ushlab o‘tqazishga jur’at qilmay dedi Erboy. – Men hammasini eshitdi. **El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi**, axir!..* [U.Hamdam.”Ota” mini-romani]

Ajratib ko‘rsatilgan ibora “*hech narsani yashirib bo‘lmaydi, hamma gapiradi*” degan ma’nolarni anglatdi. *Elak* so‘z-termini ko‘chma ma’noda kelgan.

5) tabbiyot doirasida:

*Akbar **tishini tishiga qo‘yib h**arakatga keldi, nariroqda turgan stul oldiga sudralib bordi-da, unga suyanib o‘rnidan turib oldi, shunda chap qo‘lidagi kuchli chidab bo‘lmas og‘riqqa duch keldi: u singan edi.* [U.Hamdam. Isyon va itoat romani. 21-b]

“*Tishini tishiga qo‘ymoq*” iborasi “*chidamoq*” ma’nosining obrazli ifodasidir. Ilmiy ishimiz nuqtayi nazaridan inoson tana a’zolarini tibbiyot sohasiga oid so‘z-termin sifatida oldik.

*…Shunday bir emlama ixtiro qilinsinki, unda o‘sha mushtarak jihatlarga ta’sir etadigan quvvat bo‘lsin va grippning **tomirini kessin,** – deb orzu qilardi…*[U.Hamdam “Isyon va itoat” romani. 30-b]

Ushbu parchada qo‘llanilgan “*tomirini kesmoq*” iborasi “*tugatmoq, yo‘q qilmoq*” ma’nolarida kelgan, *tomir* so‘z-termini yuoqida izohlaganimizdek, tibbiyot sohasining atamasi bo‘lib kelgan.

6) maktab-maorif doirasida:

Gripp nima degan gap, ikkita dori bilan bitta vitamin yozib berish shuncha qiyinmi, uni anavi ***kallasida alif ham turmaydigan*** *"qassoblar" ham qilaverishadi.*[U.Hamdam "Isyon va itoat" romani. 29-b]

Parchada qo'llanilgan *kallasida alif ham turmaydigan iborasining "alifni tayoq deyolmaslik, alifni kaltak deyolmaslik"* kabi variantlari ham bo'lib, "*hech narsa bilmaslik*" ma'nosi badiiy ifodasidir. Yuqoridagi misolda esa shevaga xoslangan shakli berilgan. *Alif* so'z-termini ishtirok etgan. Parchadagi ma'nosi esa "*bu ishga o'qimishli bo'lish shart emas, hech narsani bilmaydigan qassoblar eplaydigan yumush*" ma'nosida kelgan.

Bu ham sizga ***dars bo'lmagan*** *ko'rinadi! Hali u domlaga, hali bu folbinga, hali u tabibga, hali yan kimgadir… Bas, endi, aya! Bas!!! Balki shuning uchun tirnoqqa zor qilayotgandir meni Xudo!...* [U.Hamdam. "Ota" mini-romani]

"*Dars bo'lmoq*" iborasi "*xulosa chiqarmoq, bu ishdan afsus qilmoq*" ma'nolarida keladi. O'qituvchilik sohasida *dars* so'z-termini ko'p qo'llaniladi.

7) chorvachilik dorasida:

– Tushunsang-chi, qahramonlikning vaqtimas. ***Quyon bo'lish kerak!*** *– deb bo'g'ildi Mirazim…* [U.Hamdam. "Muvoznat" romani. 30-bet]

"*Quyon bo'lish kerak*" iborasi "*tezroq qochish kerak*" ma'nosini ifodalaydi. Asosan, yoshlar, o'quvchi-talabalar nutqida ko'p qo'llaniladi.

*Said "Haliyam xomxayolliging qolmabdi", desa, Yusuf "****Jo'jani kuzda sanaydilar****", deb qutiladi. Tovba, nimasiga buncha keriladi? To'g'ri, ilmi bor. Lekin nima qilib beryapti o'sha bilgan narsasi, o'qigan kitoblari, yozgan maqolalari?* [U.Hamdam. "Muvoznat" romani. 71-bet)

Po'lat, Po'latjon, bu gap shu yerda, o'rtamizda qolsin, Anu Erboy kelib naq go'shimni yeydi-ya!...[U.Hamda. "Ota" mini-romani]

8) quruvchilik doirasida:

Biroq ***g'isht qolipidan ko'chgandi:*** *u o'zi hadiksiragan birinchi zarbani olgan, vujudi, ayniqsa, musht tekkan yuzi lovullab, uni haqiqiy mushtlashuvga undardi.* [U.Hamdam. Muvoznat romani. 29-bet]

Parchada qo'llanilgan "*g'isht qolipidan ko'chgan*" iborasi "*hammasi bo'lib bo'lgan, to'g'rilashning iloji yo'q*" ma'nosini bildiradi. *G'isht, qolip* so'z-terminlari quruvchilik sohasi oid terminlardir. Gap mazmunidan ham shuni anglash mumkinki, "endi mushtlashmaslikni iloji yo'q, ortga qayib bo'lmaydi", degan ma'noni yozuvchi ibora bilan osongina ko'zlagan maqsadiga yetgan.

9) zargarlik doirasi :

Hech qachon birovning qismati ikkinchisinikiga ***uzukka ko'z qo'ygandek*** *mos tushmaydi; yoki buni boshqacha ramzlash kerakdir: ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshagan insonni ham, ummi ham topish mahol.* [U.Hamdam "Isyon va itoat" romani. 49-b]

Yuqoridagi parchada keltirilgan ibora "*juda mos tushadi*" degan ma'noni ifodalaydi. *Uzuk* so'z-termin zargarlik sohasida ayni atamasidir.

10) do'ppido'zlik

Biroq baribir ***do'ppini ko'kka otib o'ynaydigan*** *kayfiyati qo'q edi: asabiy va ayni paytda sovuqqon edi.* [U.Hamdam "Isyon va itoat" romani. 30-b]

Parchada keltirilgan iboradan gapning mazmunini, nima demoqchiligini anglab olsa bo'ladi. "*do'ppini ko'kka otib o'ynaydigan*" iborasining "*do'ppisini osmonga tashlamoq*", "*do'ppisini osmonga irg'itmoq*" kabi variantlari ham bor, va bu iboralar "*juda xursand bo'lmoq, quvonmoq*" ma'nolarini anglatadi [7]. Do'ppido'zlikda "*do'ppi*" so'z-termin hisoblanadi.

Endi bundoq ***do'ppini olib qo'yib o'ylab*** *qarasam, umming eng go'zal onlari, hayotning eng shirin, esda qoladigan aziz damlari o'sha chog'lar ekan…* [U.Hamdam. "Muvoznat" romani. 11-bet]

Do'ppi so'z-termini bilan bog'liq yana bir ibora "*do'ppini olib qo'yib o'ylab*" dir. Ushbu ibora "*obdon o'ylab ko'rmoq*" ma'nosida qo'llaniladi. Asosan, kattalar, ma'lum sohada ish yurituvchilar nutqida ko'p foydalaniladi.

XULOSA

Professionalizmlardan hosil bo'lgan frazemalar, maqol va turg'un birikmalar ham badiiy asarni pragmatk tahlilida o'ziga xos vazifa bajaradi. Asarda ushbu birliklar personajlarning ruhiy holatini, nima demoqchliligini ifodalashda, baho munosabatini bildirishda muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik .– Toshkent, 2009.- 112-b.
2. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent,1992, 149-b.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.– Тошкент, 1978, 27 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.– Тошкент, 1978, 27 б.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.– Тошкент, 1978, 227 б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.– Тошкент, 1978, 208-212 б.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.– Тошкент, 1978, 47 б.
8. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 2004.
9. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi .– Toshkent, 2019.
10. Hakimov M. Pragmalingvistika asoslari.– Toshkent, 2020.